

**QO‘G‘AY QISHLOG‘I SHEVASINING FONETIK XUSUSIYATLARI
PHONETIC CHARACTERISTICS OF THE DIALECT OF KOGAY
VILLAGE**

Kobuljonova Gulbahor

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon davlat universiteti

gulbahorkobuljanova-1958@gmail.com

+99891-168-40-17

Turdiyeva Ma’mura Hasanboy qizi,

Andijon davlat universiteti magistri

turdiyevamamura18@gmail.com

+99897-000-18-97

Annotatsiya: maqolada Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani Qo‘g‘ay qishlog‘ida yashovchi aholi shevasining fonetik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *til, sheva, dialekt, lahja, o‘zbek tili, fonetik xususiyatlari, leksik xusiyatlar.*

Annotation: the article talks about the phonetic features of the dialect of the population living in the village of Kogay, Uchkurgan district, Namangan region.

Key words: *language, dialect, dialect, dialect, Uzbek language, phonetic features, lexical features*

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va beba ho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi [1]. Davlat tili haqidagi bir necha qaror va farmonlar o‘z ona tilimizning dunyo miqyosidagi mavqeinibir necha yuqori pog‘onalarga olib chiqdi desakmubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunga kelib, dunyodagi barcha tillarning asosiy ustuni hisoblangan, tilni boyitib boruvchi eng asosiy ichki manbaa bo‘libxizmat qiluvchi shevalarga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada kuchaydi.

Bizning tilimiz qadimdan shevalarga, lahjalargaboyligi bilan ham boshqa tillardan alohida ajralib turadi. Har bir sheva o‘zining fonetik, leksik, morfologikkabi

grammatik xususiyatlariga ega. Mana shu xususiyatlar tufayli shevalar bir-biridan farq qilib turadi. Bizning Namangan viloyati shevasi ham mana shunday farqlanishlar bilan, ayniqsa, fonetik va morfologik jihatdan boshqa viloyatlar shevasidan keskin farq qiladi. Uchqo‘rg‘on tumani ham bir necha qishloqlarga bo’lgan. Mana shu qishloqlarning ayrimlari morfologik nuqtayi nazaridan farq qiladi. Masalan, hozirgi zamon -yapti qo‘s Shimchasining shevadagi variantlari quyidagicha:

Namangan shahar shevasida hozirgi zamon -yapti qo‘s Shimchasi -(I)utti tarzida talaffuz qilinadi. Keluttъ(kelyapti), qiluttъ(qilyapti) gapiruttъ(gapiryapti), yozuttъ(yozyapti) eshituttъ(eshityapti) kabi

Uchqo‘rg‘on tumanining Qo‘g‘ay qishlog‘i markazi va qishloqning 2-bo‘limhududlarida esa hozirgi zamon -yapti qo‘s Shimchasi hozirgi zamon qo‘s Shimchalarining qo‘llanilishida katta farq bor. Qishloqning markazi va ko‘p joylarida (-yotgan, -ayotgan) qo‘s Shimchalari (-yatkan, -yapkan) tarzida talaffuz qilinadi:

Uxlayapkandim(uxlayotgandim) ketyatkandim(ketayotgandim) aytyapkandim(aytayotganim) o‘qiyapkandim(o‘qiyotgandim)

Qo‘g‘ay qishlog‘ining ikkinchi bo‘lim hududlarida esa hozirgi zamon qo‘s Shimchalari esa, umuman, boshqacha talaffuz qilinadi. Ya’ni (-vettъ) tarzida talaffuz qilinadi:

Yugurvetтъ(yuguryapti) maqtevetтъ(maqtayapti) ko‘rvettъ(ko‘ryapti) bo‘vettъ(bo‘lyapti)

Shu bilan birgalikda hudud aholisi shevasida metateza hodisasi ham alohida e’tiborga loyiqidir. Metateza so‘z tarkibidagi, asosan, tovushlarning, ba’zan bo‘g‘inlarning o‘rin almashinish hodisasidir. M.Mirtojiyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, o‘zbek tilida so‘z bo‘g‘inlarining o‘rin almashinuvi, ya’ni bo‘g‘in metatezasi uchramaydi[2]. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, metateza qadimiy fonetik hodisa bo‘lib, boshqa tillar kabi turkiy tillarning ilk taraqqiyot bosqichlarida, jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham kuzatiladi[3]. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida metatezaga uchragan bir qancha so‘zlar +hozirda adabiy me’yorga aylangan. Masalan, turpoq~tuproq, to‘rg‘amoq ~ to‘g‘ramoq, avhol ~ ahvol, yog‘mir ~ yomg‘ir, qufl ~ qulf, o‘grat ~ o‘rgat, surpa ~ supra kabi. Qo‘g‘ay shevalarida metatezaning ikki turi kuzatiladi: 1) yondosh (kontakt) metateza; 2) masofali (distant) metateza. Yondosh metateza so‘zdagi yonma-yon tovushlarning o‘rin almashinuvi. Masalan, [tag‘mə] ~ tamg‘a, [yulg‘ə] ~ yig‘la, [o‘shqaydъ] ~ o‘xshaydi, [aynələy] ~ aylanay, [avərə] ~ arava kabi. Qo‘g‘ay shevalarida yondosh metatezaning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi: g‘r~rg‘: [to‘rg‘ə]~to‘g‘ra, [Ьg‘rt]~irg‘it (otmoq, otib yubormoq), [j‘g‘rən]~ ijirg‘anmoq; hv~vh: [əvhəl] ~ ahvol; pr~rp: [tүrpəq]~ tuproq, [кырғъ]~kirpi (tipratikan), [surpo]~supra; ry~yr:[dəyrə]~daryo, [məyrəm] ~ Maryam (qiz bola ismi), [dət-pəyrət]~dod-faryod, vr~rv: [ərvəz] ~ avroz, [ərvə-əstər] ~ avra-astar, [əvrəh] ~ arvoh, [sərvъ] ~ Savri (qiz bola ismi); rg~gr:

[o'grъləy]~o'rgilay; lz~zl: [myzлem]~mulzam; rs~sr: [tesrəyp]~tersayib (tersaymoq); zy~yz: [tɔyziq] ~ tazyiq; zr~rz: [ərzəył] ~ azroil; (d>)th~ ht: [əhtəm] ~ Adham; ns~sn: [esnəm qɔtti] ~ ensam qotdi (ensasi qotmoq); br~r(b>)v: [terbət//tervət]~tebrat (belanchak tebratmoq); o'zlashmalarda: ly(n>)~yl: [nəchəyłk] ~ rus. nachalnik kabi. Tahlillardan ko'rinadiki, o'zbek adabiy tili va boshqa shevalarga xos [to'rg'ɔ]~to'g'ra, [tyrpəq]~tuproq, [dəyrə]~daryo kabi ko'rinishdagi yondosh metateza mazkur shevada ko'p kuzatiladi. Masofali (distant) metateza so'zdagi yondosh bo'lмаган, bir-biridan uzoqroq bo'lган tovushlarning o'rin almashinuvi. Masalan, [pəyqəp] ~ paypoq, [əvərə] ~ arava, [nələti] ~ la'nati. Qo'g'ay shevalarida yondosh bo'lмаган masofali metatezaning ayrim ko'rinishlarini quyidagi undosh tovushlar doirasida kuzatiladi: b-l~ m(>b)-n: [mъnən] ~ bilan; r- v~r-v: [əvərə]~ arava; t-p~p-t: [pitillədi] ~ tipirladi; t-q~q- t: [qitillədi] ~ tiqirladi; s-q~q-s: [qisiq] ~ siqiq; m-g'~g'-m: [g'ijimlə] ~ mijg'ila, l-n~n-l: [nələtъ] ~ la'nati, [əynələy] ~ aylanay; r-l ~ l-r: [təlg'ir] ~ targ'il (targ'il sigir); r-y~ y-r: [qiyg'ır//qirg'ɔy] ~ qirg'iy; dj-z ~ z-dj: [mъzəj] ~ mijoz kabi.

Sh. Shoabdurahmonov o'zbek adabiy tilida ham ayrim so'zlar tarixiy aslidek emas, metatezik holatda (o'g~o'gran~o'rgan, yog'~yog'moq~yomg'ir kabi) ekanligini, o'zbek tili shevalarida metateza hodisasi asosan sonor tovushlar orqali yuz berishini ta'kidlaydi[4]. Biroq Qo'g'ay shevalarida sonor bo'lмаган undoshlar doirasida ham metateza kuzatiladi: [tɔyziq]/tazyiq, [əv w]/afv, [qisiq]/siqiq, [əhtəm]/Adham, [m'zəj]/ mijoz kabi. Janubi-g'arbiy Namangan shevalariga xos metateza hodisasini tarixiy-etimologik manbasiga ko'ra qaysi qatlama leksikasida yuz berishini quyidagicha guruhash mumkin:

1) o'z qatlama leksikasi doirasidagi metateza: [qiyg'ır//qiyg'ɔy] ~ qirg'iy, [əynələy]~aylanay, [təlg'ir]~targ'il, [qisiq] ~ siqiq, [pitillədi] ~ tipirladi; [qitillədi] ~ tiqirladi, [g'ijimlə] ~ mijg'ila, ['rjig'ɔn] ~ ijirg'anmoq;

2) o'zlashma qatlama leksikasi doirasidagi metateza:

a) forscha-tojikcha o'zlashma so'zlarda: [dət-pəyrət]~dod- faryod, [pəryɔv] ~ payrov, [əzrəndə] ~ arzanda, [ərvə-əstər] ~ avra- astar, [dəyrə] ~ daryo kabi;

b) arabcha o'zlashma so'zlarda: [əvhəl] ~ ahvol, [tɔyziq] ~ tazyiq, [əvw] ~ afv, [əhtəm] ~ Adham, [m'zəj] ~ mijoz, [nələt'] ~ la'nati, [ərzəy'l] ~ azroil, [myzлem]~mulzam, [əvrəh] ~ arvoh, [sərv'] ~ Savixon kabi;

v) rus va u vositasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda: [nəchəyłk] ~ nachalnik, [təl'rкə] ~ tarelka.

Qo'g'ay shevalariga xos metateza hodisasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hodisa tildagi va unga o'zlashgan so'zlar talaffuzining soddalashuvi, shevaning ichki fonetik-fonologik va orfoepik qonuniyati me'yorlariga moslashuvi asosida yuzaga keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bizga ma'lumki, xalq tarixining tadrijiy taraqqiyoti uning tiliga ham ta'sir etadi. Chunki tildagi o'zgarish va rivojlanishlar

xalqning tarixi, turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga aloqador bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti – undagi o‘zgarishlar dastavval, til boyligining eng asosiy, eng mukammal va eng harakatchan qismi bo‘lgan so‘zlarda qayd etiladi. Ma’lumki, har bir xalq tilining o‘z lug‘at boyligi – so‘z xazinasi bor. Tilning lug‘at tarkibi esa xalqning tarixiy taraqqiyotiga bog‘liq holda o‘zgarib, boyib boradi. Ba’zi bir eskirgan so‘zlar nutqiy muomaladan chiqib ketsa, yangi so‘zlarning yasalishi va kirib kelishi bilan til muttasil boyiydi. Mavjud so‘zlarning ma’nolari o‘zgaradi, tobora kengaytiriladi va to‘ldiriladi. Ammo tilning asosiy lug‘at jamg‘armasi esa lug‘at tizimining negizi sifatida asrlar bo‘yi saqlanadi.